O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI
QARORI

2023 - yil 23 - iyun 131-10-212-Q/23 Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2023-yil 8-iyundagi 256-10-0-Q/23-sonli qarori ijrosi **to‘g‘risida**

Toshkent viloyati hokimining 2023-yil 8-iyundagi “Toshkent tumanida bo‘sh turgan yer maydonini davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risida”gi 256-10-0-Q/23-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida

Qaror qilaman:

1. Toshkent viloyati hokimining 2023-yil 8-iyundagi “Toshkent tumanida bo‘sh turgan yer maydonini davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risida”gi 256-10-0-Q/23-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Ushbu qarori bilan:

“ZANGIOTA OBODON” MCHJ ta’sischisi Xaydarov Alisher Kuvvataliyevich tomonidan Toshkent viloyati hokimligiga 2023-yil 12-aprelda 202301939001190-raqam bilan reestr ro‘yxatiga olingan notarial arizasiga asosan 10,0 gektar (kadastr raqami 11:11:10:01:09:1153), “Ko‘ksaroy” qishlog‘i, “Tosh To‘labiy Agro” agrofirmasi hududidan yer maydoni davlat zaxirasiga qaytarilganligini hamda bo‘sh turgan yer uchastkasi hisoblanishini inobatga olib yer toifasi bo‘yicha davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi;

Davlat kadastrlari palatasi (J.Axrorov) viloyat boshqarmasi mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan davlat zaxirasiga qaytarilayotgan yer maydoni bo‘yicha rasmiylashtirilgan kadastr hujjatlarini amaldagi qonunchilik normalari asosida bekor qilishi va Toshkent tumani hokimligi buyurtmasiga asosan yer maydonini belgilangan tartibda davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin hamda viloyat yer fondi hisobotiga tegishli o‘zgartirish kiritishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Davlat kadastlar palatasi tuman filiali rahbari (J.Abzalov) “Bo‘rdoqichilik bazasi”

massividagi) 4709q konuturdagi yer maydonini yer toifasi asosida davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish maqsadida, belgilangan tartibda Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasiga buyurtma bersin.

4. Toshkent tumani Iqtisodiyot va moliya bo‘limi rahbari (B.Abduraxmonov) bo‘sh turgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonini davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish ishlarini Toshkent tumani mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilishini ta’minlasin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari S.Mirsagatov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **O.Rustamov**